

**BOJXONA YIG'IMLARINI HISOBLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI****Jurayev Jonibek Javliyevich****Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi****E-mail: [jurayevjonibek1987@gmail.com](mailto:jurayevjonibek1987@gmail.com)****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21331218>**

**Annotatsiya.** Maqolada bojxona yig'irlarining iqtisodiy-huquqiy mohiyati, ularni hisoblash bazasini tanlash mezonlari va xizmat xarajatiga mutanosib stavka belgilash tamoyillari tahlil qilingan hamda takomillashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** bojxona yig'iri, bojxona rasmiylashtiruvi, xizmat xarajati, hisoblash bazasi, BHM, to'lov kodi.

Bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o'tilganda undiriladigan to'lovlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil emas. Bojxona boji tashqi savdoni tarif orqali tartibga solishga xizmat qilsa, bojxona yig'iri bojxona organi tomonidan rasmiylashtirish, saqlash, kuzatib borish, ko'rik, hujjatga o'zgartirish kiritish yoki dastlabki qaror qabul qilish kabi aniq harakat bajarilishi bilan bog'liq. Shu sababli yig'irning miqdori tovarning o'zidan ko'ra ko'rsatilgan xizmat va sarflangan resurslar bilan asoslanishi lozim.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi 55-son qarorida bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'irlarni bojxona organlari harakatlari bilan bog'liq xarajatlarning taxminiy qiymatidan kelib chiqib belgilash hamda eksport va import rejimlari bo'yicha stavkalarni muvofiqlashtirish nazarda tutilgan [5]. Mazkur yondashuv bojxona yig'irlarini davlat daromadlarini sun'iy ko'paytirish vositasi sifatida emas, xizmat xarajatini qoplovchi to'lov sifatida baholashni talab qiladi.

Bojxona yig'irlarining nazariy mohiyatini ifodalashda quyidagi 3 ta belgisini alohida qayd etish lozim.

Bojxona yig'irining birinchi belgisi – uning xizmatga bog'liqligidir. Yig'ir undirilishi uchun bojxona organi tomonidan huquqiy ahamiyatga ega harakat bajarilishi yoki alohida resurs sarflanishi kerak. Masalan, omborda saqlashda bino va qo'riqlash xarajatlari, bojxona kuzatuvda transport hamda xodim vaqti, ish vaqtidan tashqari rasmiylashtirishda qo'shimcha mehnat resursi yuzaga keladi. Demak, stavka xizmat nomigagina emas, uning real resurs sig'iriga ham tayanishi zarur.

Ikkinchi belgi – mutanosiblik. GATTning VIII moddasi import va eksport bilan bog'liq yig'irlar ko'rsatilgan xizmatlarning taxminiy qiymati bilan cheklanishi, mahalliy mahsulotlarni bilvosita himoya qilmasligi va import yoki eksportga qo'shimcha soliq vazifasini bajarmasligi kerakligini belgilaydi [2]. Jahon savdo tashkilotining Savdoni yengillashtirish to'g'risidagi bitimi 6-moddasida esa yig'irlar haqidagi axborotni e'lon qilish, ularni davriy qayta ko'rib chiqish va xizmat xarajatiga bog'lash talablari mustahkamlangan [3].

Uchinchi belgi – huquqiy aniqlik va oldindan hisoblanish imkoniyatidir. To'lovchi yig'ir turi, kodi, stavkasi, hisoblash bazasi va undirish vaqtini oldindan bilishi kerak. Prezidentning 2025-yil 30-apreldagi PF-74-son Farmonida bojxona yig'irlarining davlat daromadlarini oshirish maqsadida undirilmasligini ta'minlash yo'nalishi belgilangan [4]. Bu talab stavkalar iqtisodiy asoslangan, shaffof va aynan ko'rsatilgan xizmat bilan bog'liq bo'lishini anglatadi.

Bojxona yig'irlarini hisoblashda bir necha mezon qo'llaniladi. Qat'iy stavka deklaratsiya, ariza, qaror, transport vositasi yoki boshqa operatsiya birligi uchun oldindan belgilangan summani

nazarda tutadi. Uning afzalligi hisoblashning soddaligi va avtomatlashtirishga qulayligidir. Biroq xizmat murakkabligi keskin farq qiladigan hollarda yagona qat'iy summa real xarajatni to'liq aks ettirmasligi mumkin.

Qiymat diapazoniga bog'langan stavka yirik tovar partiyalari bo'yicha nazorat murakkabligini hisobga olishga yordam beradi. Shu bilan birga, tovar qiymati oshgani sari bojxona organining xarajati ayni nisbatda oshmaydi. Shuning uchun qiymat mezonidan foydalanilganda bosqichma-bosqich diapazon va maksimal chegara belgilash muhim. BHMga bog'langan stavka inflyatsion o'zgarishlarga moslashadi, ammo BHMning oshishi xizmat tannarxi bilan doimo bir xil bo'lmagani sababli stavka davriy xarajatlar tahlili bilan tasdiqlanishi lozim.

Og'irlik, miqdor, muddat va masofaga asoslangan mezonlar xizmatning jismoniy hajmini nisbatan aniq ifodalaydi. Saqlash yig'imi kunlar soni, kuzatuv yig'imi masofa, kuryerlik jo'natmasini rasmiylashtirish yig'imi esa brutto og'irlik bilan bog'lanishi mumkin. Umumiy metodik model “xizmat turi – resurs sarfi – hisoblash bazasi – stavka – to'lov kodi” ketma-ketligiga tayanadi. Shartli ravishda yig'im  $Y = S \times B$  ko'rinishida ifodalanadi, bunda  $S$  – stavka,  $B$  – miqdoriy hisoblash bazasi; qat'iy stavkada  $B$  bir birlikka teng bo'ladi.

Bojxona yig'imlarini elektron hisobga olishda to'lov kodlari muhim o'rin tutadi. Adliya vazirligida 2773-son bilan ro'yxatdan o'tgan Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 13-ilovasida bojxona to'lovlari tasniflagichi keltirilgan [6]. Unda bojxona rasmiylashtiruvi yig'implari, boshqa yig'implar, bojlar, soliqlar, jarimalar va boshqa to'lovlar alohida kodlar bilan ajratilgan. Kodlash hisoblangan summani BYDda to'g'ri aks ettirish, tushumlarni tegishli hisobvaraqlarga yo'naltirish va statistik nazoratni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Amaldagi tasniflagichda 10–15 kodlar bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq yig'implarni, 40–54 kodlar esa saqlash, kuzatib borish, ruxsatnoma, deklaratsiyaga o'zgartirish, muddat buzilishi va dastlabki qarorlar kabi boshqa yig'implarni qamrab oladi. Xususan, xalqaro kuryerlik jo'natmalari uchun 15-kod, tranzit deklaratsiyasiga o'zgartirish kiritish uchun 47-kod, bojxona to'lovlari miqdori, kelib chiqish mamlakati va intellektual mulk masalalaridagi xizmatlar uchun 51, 53 va 54-kodlar mavjud [6]. Bu tasnif bojxona xizmatlarining ixtisoslashuvi va raqamlashtirilishini aks ettiradi.

“Davlat bojxona xizmati to'g'risida”gi Qonunning 34-moddasi bojxona organlarini Davlat budjeti va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirishni, shuningdek budjetdan tashqari jamg'arma tashkil etilishi mumkinligini belgilaydi [1]. Biroq jamg'armaning moliyaviy ehtiyoji stavka belgilashning asosiy mezoni bo'lmasligi kerak; birlamchi mezon xizmatning taxminiy xarajati bo'lib qolishi lozim.

Bojxona yig'implarini hisoblash va undirishni takomillashtirish yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Birinchidan, har bir yig'im turi bo'yicha xizmat pasporti va xarajatlar auditi joriy etilishi zarur. Unda xodim vaqti, axborot tizimi, bino, transport, saqlash va ekspertiza xarajatlari ko'rsatiladi.

Ikkinchidan, stavkalar kamida uch yilda bir marta yoki xizmat texnologiyasi o'zgarganda qayta baholanishi kerak. Raqamlashtirish tannarxni pasaytirs, yig'im ham kamaytirilishi lozim.

Uchinchidan, bojxona organining rasmiy elektron kalkulyatori orqali to'lovchi qiymat, og'irlik, muddat yoki masofani kiritib, yig'im summasini oldindan hisoblay olishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, mazmunan takrorlanadigan yig'imlar birlashtirilishi, qiymatga bog'langan stavkalarga esa yuqori chegara qo'yilishi kerak.

Beshinchidan, xizmat xarajatini qoplamaydigan va asosan huquqbuzarlikni jazolashga qaratilgan moliyaviy choralar bojxona yig'imidan alohida javobgarlik chorasi sifatida tartibga solinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bojxona yig'implari bojxona boji va soliqlardan xizmatga bog'langan kompensatsion mohiyati bilan farqlanadi. Ularni hisoblashda iqtisodiy asoslanganlik, huquqiy aniqlik, shaffoflik, xizmat qiymatiga mutanosiblik va avtomatlashtirish tamoyillari birgalikda qo'llanishi zarur. Qat'iy stavka, BHM, qiymat, og'irlik, muddat yoki masofa mezonini faqat tegishli xizmatning real resurs sarfiga mos bo'lgandagina ilmiy asoslangan hisoblanadi. Xarajatlar auditi, davriy qayta baholash, elektron kalkulyatsiya va to'lov kodlarini takomillashtirish tadbirkorlarning tashqi savdo xarajatlarini oldindan rejalashtirishiga hamda bojxona xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi O'RQ-502-son "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonuni.
2. General Agreement on Tariffs and Trade (GATT 1994), Article VIII, paragraph 1(a).
3. World Trade Organization, Agreement on Trade Facilitation, Article 6, paragraphs 1.2–1.4. - Jahon savdo tashkilotining Savdoni yengillashtirish to'g'risidagi bitimi, 6-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PF-74-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi 55-son "Bojxona yig'implari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
6. Adliya vazirligida 2016-yil 6-aprelda 2773-son bilan ro'yxatdan o'tgan Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma.